

"O'g'il bolalar va qiz bolalar turlicha o'rganadilar"

Xalqaro Nordik universiteti
Psixologiya va maktabgacha
ta'lim kafedrasi katta o'qituvchisi
Razzoqova Mahliyo Qosimjonovna

Maykl Gariyen o'zining "*O'g'il bolalar va qiz bolalar turlicha o'rganadilar*" kitobida turli jins vakillarining ta'lim olish uslublari bir-biridan farq qilishini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, bu farqlar asosan bolalarning nerv tizimining funksional xususiyatlari, hissiy javob qaytarish usullari, bilish, ijtimoiy va boshqa ko'nikmalar bilan bog'liq. Ushbu xususiyatlarni hisobga olgan holda o'qitish jarayonini optimallashtirish ta'lim sifatini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Muallifning tadqiqotlari jinsiy farqlarni bevosita o'g'il va qiz bolalar bilan bog'lamaydi, balki ularning miyasi "*erkak*" yoki "*ayol*" tipida rivojlanganiga e'tibor qaratadi. Ko'pchilik erkaklar "*erkak*" tipidagi miyaga, ayollar esa "*ayol*" tipidagi miyaga ega bo'lsa-da, bu har doim ham shunday bo'lavermaydi.

Jinsiy farqlar rivojlanishning ilk bosqichlaridayoq namoyon bo'ladi.

Jinsiy farqlar homila rivojlanish davrida, ya'ni perinatal (tug'ilmagan paytda) bosqichdayoq kuzatiladi. Masalan, erkak jinsidagi homila ko'proq harakat qiladi va bezovtalik ko'rsatadi. Tug'ilishga yaqin paytda uning miyasining og'irligi ayol jinsidagi homilaga qaraganda kattaroq bo'ladi, biroq chap va o'ng miya yarim sharlarini bog'lovchi nerv tolasi (mo'lozimat tanasi) ayol homilaga nisbatan kichikroq bo'ladi.

Bola dunyoga kelgandan keyin bu farqlar yanada yaqqol seziladi:

- **O'g'il bolalar** atrof-muhitni faolroq va tezroq o'rganishga intiladilar. Ular ko'proq harakat qiladi, tez jahli chiqadi va teriga tashqi ta'sirlarni kamroq sezadi.
- **Qiz bolalar** esa muhitni chuqurroq o'rganadilar, ya'ni ular o'yinchoqlar yoki buyumlarni uzoq vaqt kuzatadilar. Shuningdek, ular bir oylik bo'lishidan boshlab, boshqa bolalarning yig'isini farqlash qobiliyatiga ega bo'ladilar va tanish yuzlarni tezroq eslab qoladilar.
- **O'g'il bolalar** baland tovushlarga nisbatan sezgirroq bo'lishadi, lekin insonning turli hissiy signallarini anglashda qiz bolalarga qaraganda ojizroq bo'ladilar.

Jinsiy farqlar harakat va til rivojlanishida ham aks etadi

Bola ilk bor yurishni o'rganayotgan davrda ham sezilarli farqlar kuzatiladi:

- **Qiz bolalar** bu vaqtda o'z yoshiga mos ravishda boyroq so'z boyligiga ega bo'ladilar, lekin harakat qilishdan ko'ra, tahlil qilish va kuzatishga ko'proq moyil bo'ladilar.
- **O'g'il bolalar** esa turgan joyida uzoq qolish o'rniga, imkoniyat paydo bo'lishi bilanoq yurishga harakat qilishadi. Ular jismoniy rivojlanish bo'yicha ilgarilab boradilar, lekin murakkab muammolarni hal qilish va bir vaqtning o'zida bir nechta vazifani bajarish borasida qiz bolalarga nisbatan kamroq qobiliyatga ega bo'ladilar.
- **Qiz bolalar** vizual (ko'rish) xotirani yaxshiroq rivojlantiradilar va tovushlarni ikki qulog'i bilan teng eshitadilar.
- **O'g'il bolalar** esa aksariyat hollarda faqat bitta qulog'i yoki ko'zi orqali yaxshiroq qabul qilishadi (odatda, o'ng quloq va chap ko'z ustunlik qiladi).

3-4 yoshga kelib sezilarli tafovutlar namoyon bo'ladi

- **Qiz bolalar** o'zaro muloqot qilishda yanada moslashuvchan bo'lib, til rivojlanishi va xotira hajmi jihatidan oldinga chiqadilar.
- **O'g'il bolalar** esa o'z e'tiborini bitta narsaga uzoq vaqt jamlashga qodir bo'lsalar-da, xotira hajmi qiz bolalarga qaraganda kamroq bo'ladi.

Emotsional va ijtimoiy farqlar

Jinsiy farqlar o'yin jarayonida ham yaqqol ko'zga tashlanadi:

- **O'g'il bolalar** faol, harakatga boy va ko'proq musobaqali o'yinlarga qiziqadilar. Ular katta hududda harakat qilishni afzal biladilar va hatto ba'zida shunchaki yugurib yurish bilan shug'ullanishlari mumkin.
- **Qiz bolalar** esa aksincha, tinchroq o'yinlarga moyil bo'ladilar. Ular juft yoki jamoaviy o'yinlarni tanlashadi.
- **O'g'il bolalar** o'z hissiyotlarini harakat orqali ifoda etadilar, qiz bolalar esa so'z orqali.
- **O'g'il bolalar** onalaridan xayrlashayotganda kamroq vaqt sarflaydilar – ularga atigi 30 soniya kifoya bo'ladi. **Qiz bolalar** esa kamida 1,5 daqiqa ajratadilar.
- **Qiz bolalar** yangi odamlarni tezroq qabul qiladilar va ularning his-tuyg'ulariga nisbatan sezgir bo'ladilar.

- **O'g'il bolalar** esa yangi bolalarni avvaliga e'tiborsiz qoldirishga moyil bo'ladilar va ular jamoadagi o'rnini mustaqil topishi kerak bo'ladi.

Xulosa

Maykl Gariyenning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, o'g'il va qiz bolalar o'qish jarayonida turlicha yondashuvni talab qiladi. Bu farqlar nafaqat biologik omillar bilan bog'liq, balki ijtimoiy va psixologik jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilar va ota-onalar ushbu xususiyatlarni hisobga olib, o'g'il va qiz bolalarga mos keladigan ta'lim usullarini qo'llasa, bu ta'lim samaradorligini oshirishga katta hissa qo'shishi mumkin.

Bu maqola **Maykl Gariyen tadqiqotlariga asoslanib** tarjima qilingan, Tarjima qilishimga esa ba'zi maqolalar sabab bo'ldi. O'z ilmiy ishining mazmuni ham shu maqola bilan bog'liqligi tufayli maqolani tarjima qilib siz bilan ulashishni ma'qul ko'rdim. Tarjimada mazmunini imkon qadar buzmay yetkazishga harakat qildim. Agar xatoliklar bo'lsa mendan deb biling, yutuqlarini va sizga manfaat keltiruvchi qismlarini esa muallifning mehnati va Allohning tavfiqi sababidan deb biling. Ushbu tadqiqot ishini tarjima qilishimga turtki bo'lgan adabiyotlar ro'yxatini qayd etib o'taman.

Adabiyotlar:

- Razzoqova, M. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AHLOQIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISH: ahloqiy tarbiya maktabgacha yosh. Nordic_Press, 2(0002).
- Razzoqova, M. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI AHLOQIY TARBIYALASHNING NAZARIY ASOSLARI: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI AHLOQIY TARBIYALASHNING NAZARIY ASOSLARI. Nordic_Press, 2(0002).
- Razzoqova, M. (2024). METHODOLOGY OF ORGANIZATION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. Nordic_Press, 3(0003).
- Razzoqova, M. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA GENDER IDENTIFIKATSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI. Nordic_Press, 2(0002).
- Razzoqova, M. (2024). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA PSIXOLOGIK XIZMATNI TASHKIL ETISH METODIKASI. Nordic_Press, 2(0002).
- Hakimova, S. J. (2023). BOLALAR SOGLOM OVQATLANISHINING PSIXOEMOTSIONAL HOLATGA BO'LGAN TA'SIRI. Zamonaviy fan va ta'lim yangiliklari xalqaro ilmiy jurnal, 1(5), 89-94.

